

## TARBIYASI QIYIN O'SMIRLAR BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8231967>

**Sobirova Madinabonu Jamshid qizi**

*Psixologiya va xorijiy tillar instituti*

*1-bosqich magistranti*

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada bugungi kunda o'smirdan shaxslilik xususiyatlari, muvaffaqiyatli muloqot, umuminsoniy sifatlar va tashqi ko'rinish hisobiga o'zini qabul qilish darajasining ortishi talab qilinishi, bundan tashqari "Men timsoli" korreksiyasi texnologiyasi va tarbiyasi qiyin o'smirlardagi deviant xulqatvorni boshqarish tizimi ta'lim sub'ektlari muvaffaqiyatiga psixologik-pedagogik hamrohlik qilishni ko'zda tutilgan. Yoshlarda deviant xulq-atvor: ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik, jinoyatchilik kabi illatlarning yuzaga kelishiga asosiy sabab ijtimoiy muhit. Aholi siyosiy ongi va manadiyatining pastligi, ijtimoiy nazorat institutlarining e'tiborsizligi, boqimanda oilalar sonini o'sishi deviant xulq-atordagi yoshlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Jamiyat a'zolari o'rtasida, ayniqsa yoshlar orasida, bu tipdagi xulq-atvorning rivojlanishi o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy va jismoniy salomatligi borasida so'z boradi.

### **Kalit so'zlar**

*o'smir, pedagog, kompetentlik, tarbiya, oila. Ota-ona, referent, xulq-atvor, giyohvandlik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, og'ma xulq-atvor, deliktivent xulq, agressiya.*

## ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С ПОДРОСТКАМИ С ТЯЖЕЛЫМ ВОСПИТАНИЕМ

**Собирова Мадинабону Джамшидовна**

*Магистрант институт*

*психологии и иностранных языков*

### **Аннотация**

В данной статье отмечается, что сегодня от подростка требуется повышение уровня самопринятия за счет особенностей личности, успешного общения, общечеловеческих качеств и внешнего вида, кроме того, технология коррекции "я-воплощение" и система управления девиантным поведением у трудных в воспитании подростков предусматривают психолого-педагогическое сопровождение

успеха субъектов образования. Девиантное поведение у молодежи: основная причина возникновения таких пороков, как пьянство, наркомания, проституция, преступность, — это социальная среда. Низкий уровень политического сознания и нравственности населения, пренебрежение институтами социального контроля, рост числа семей в Бакимане являются причинами появления молодежи с девиантным поведением. Развитие этого типа поведения среди членов общества, особенно среди молодежи, говорит о духовном и физическом здоровье подрастающего поколения.

### **Ключевые слова**

*подросток, педагог, компетентность, воспитание, семья. Родитель, референт, поведение, зависимость, пьянство, проституция, отклоняющееся поведение, деликтное поведение, агрессия.*

## **FEATURES OF WORKING WITH TEENAGERS WITH A DIFFICULT UPBRINGING**

**Sobirova Madinabona Jamshidovna**

*Master's student Institute  
of Psychology and Foreign Languages*

### **Abstract**

*This article notes that today a teenager is required to increase the level of self-acceptance due to personality traits, successful communication, universal human qualities and appearance, in addition, the technology of correction “I am the embodiment” and the management system of deviant behavior in adolescents difficult to educate provide psychological and pedagogical support for the success of subjects of education. Deviant behavior among young people: the main cause of such vices as drunkenness, drug addiction, prostitution, crime is the social environment. The low level of political consciousness and morality of the population, neglect of institutions of social control, the growth in the number of families in Bakiman are the reasons for the appearance of young people with deviant behavior. The development of this type of behavior among members of society, especially among young people, speaks about the spiritual and physical health of the younger generation.*

### **Key words**

*teenager, teacher, competence, upbringing, family. Parent, referent, behavior, addiction, drunkenness, prostitution, deviant behavior, tort behavior, aggression.*

Kirish. Hozirgi davrda ma'lumki, tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlash jarayoni har bir o'smirning ta'lim samaradorligiga u yoki bu darajada ta'sir etuvchi shaxslilik xususiyatlarini o'rganish va tadqiq qilish bilan bevosita bog'liqdir. Zero, ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonining asosiy qatnashchilari o'quvchilar va o'qituvchilardir. Bugungi kunda ta'lim muassasalari - o'zgarib borayotgan uzluksiz ta'lim tizimining eng dinamik jabhasi hisoblanadi. Mazmuniy va tashkiliy ma'noda u o'quvchining individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish imkoniyati hisoblanib u o'z ichiga ehtimolli-zaruriy va shu bilan birga shartli-zaruriy bilim va malakalarni qamrab oladi. Tarbiyasi qiyinlik quyidagi mezonlar asosida tahlil qilinadi: - o'zini o'zi qabul qilishning past darajasi; - boshqalarni qabul qilishning past darajasi, - tabiatiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin bo'lgan emotsionallikning namoyon etilishi; - boshqalarga bog'liqlik, ya'ni eksternallik; - ustunlikka intilish.

Jamiyatda deviant xulq-atvorning yuzaga kelishining dastlabki ob'ektlari jamiyatimizning asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlardir. Turli darajadagi ijtimoiy o'zgarishlar ota-onalarimizning, oilalarimiz, maktablar, mahallalar va boshqa ijtimoiylashuv agentlarinig ishni to'g'ri tashkil eta olmasligi, jadal o'zgarishlarga moslashuvchanlik darajasi pastligi oqibatida asosan yoshlarda, bolalik chog'idan boshlab og'ma xulq-atvorning shakllanishi kuzatiladi. O'smirlarda tarbiya masalasi tengdoshlar bilan munosabatda qo'pollik, oila a'zolariga va ustozga quloqsizlik, yolg'onchilik kabi illatlardan iborat nojo'ya hatti-harakat hisoblanadi. Bugungi kunda jahonning rivojlangan mamlakatlarida, deviant xulq-atvor tipdagilar soni o'sib borayotganligini bu achinarli. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning kuchayishi, giyohvandlik, ichkilikbozlik, fohishabozlik kabi og'ma xulq-atvor tiplar shakllanib jamiyat taraqqiyoti, ma'naviy rivojlanishiga xavf solmoqda.

O'smirlar xulqida og'ishishlar ildizi ularning tarbiyaviy va ijtimoiy tomonidan yetarli darajada ishlanmaganlikdan, jismoniy va aqlan yetuk emasligidan ham bo'lishi mumkin. Bu illatlarning o'zaro to'qnashishi natijasida intizomsiz, axloqsiz shaxslar shakllanadi. Bunday xulqning amaldagi in'ikosi sifatida ularning atrofdagi odamlar bilan keskin munosabatini ko'rish mumkin. Oiladagi nosog'lom muhit bolada qo'pollik, odamovilik, yolg'onchilik kabi xususiyatlarni uyg'otadi, bunday bola o'z xarakterlari bilan barchaga va bariga «teskari» ish qilmoqchi, bo'ysunmaslik, agressiya kabi tuyg'ularni keskin ko'rsatmoqchi bo'ladi, bu bilan u huquqbuzarlik, jinoyatlarga zamin yaratadi. Psixologik nuqtai nazardan bunday agressiv xulqni tuzatish deganda o'z-o'zini hurmat qilishi, o'z «men»ini shakllantirishi, atrofdagi odamlar, o'z tengdoshlari bilan muloqotni o'rnatish ishlari nazarda tutiladi. Bunday tuzatish ishlari izchil olib borilishi davomida sekin-asta nafaqat illatlarni tuzatish, balki butunlay yo'qotib, shaxsni qayta tarbiyalash ham

muhimdir. Mohir psixolog va pedagog o'z mahorati bilan illatli xulq-atvor egasi bo'lmish o'smirlarga shunday tarbiya choralari ko'radiki, natijada ular bunday toifadagi o'smirlarni qayta tarbiyalaydilar. Shu bilan birgalikda shaxs tarbiyasi ma'no-mazmuni to'lib, u o'z davlati, jamiyatiga foydali inson bo'lib yetishadi.

Addiktiv xulq-atvor muammosi bir qancha chet el va mumtoz psixolog va sotsiologlar tadqiqotlariga asoslanadi. Klassik yo'nalishda muammoning nazariy va ilmiy konsepsiyalari yaratilgan bo'lib, dastabki nazariya, bu ijtimoiy anomiya (E. Dyurkgeym, R. Merton, T. Parsons), og'ma xulq -atvoning jamiyat hayotiga salbiy ta'siri, radikal ijtimoiy o'zgarish. Bu nazariyaning o'ziga xosligi shundaki, deviant xulq-atvor muammosini sotsiologik tadqiqot yadrosi qilib o'rganadi. Addiktiv xulq-atvor sababini tushintirishga qaratilgan yana bir asosiy yo'nalish stigmatizatsiya (G. Bekker, I.Gofman, I.Lemmert i dr.).Submadaniyat deviatsiyasi nazariyasi (A.Koen, R. Klouard va L.Oulin), Real hayotda va o'z intilishlarni amaga oshirishda deviant huql-atvor ta'siri to'g'risida fikr bildiriladi.

Differensial a'loqlar nazariyasiga ko'ra (E. Saterlend), xulq og'ishiga mikroijtimoiy muhitning ta'siri asos qilinadi. Yoshlarda og'ish holatlarning yuzaga kelishing asosiy sababi. bu turli guruhlarning ta'siri, yoshlar ehtiyojlariga qarab mazkur guruhlar normalariga amal qiladi, bu yoshlarda deviant xulq-atvor shakllanishiga olib keladi. G.Tardning fikricha, ko'proq taqlid qilish oqibatida.

Yoshlardagi og'ma xulq-atvor muammosini o'rganilishida bir qancha mumtoz sotsiologlarning ishlari ham muhim ahamiyatga ega. Aytish mumkinki sobiq sovet ittifoqi davrida, yoshlar og'ma xulq-atvor muamosi o'rganilishi asosan kriminologiya, psixologiya, pedagogika fanlari tomonidan amalga oshirilgan. (Yu.M. Antonyan V.N.Kudryavsev A.M.Yakovlev, I.S.Kon va boshqalar).

Respublikamiz olimlari ham o'smirlar orasidagi deviant xulq muammolariga o'z ilmiy ishlarida murojaat kilganlar. A.I.Ostrovskiy, Sh.A.Isroilov, O'.Q.Tolipov, Yu.M.Asadov, S.Fayziev, K.Normatov, D.Sharipova, G.Xudoyarova, G.T.Yadgorova, O.U.Avloyevlar o'z ilmiy izlanishlarida deviant xulqli o'smirlar xulq-atvoriga xos salbiy illatlarning oldini olish, unga qarshi kurashish, ularni qayta tarbiyalashning psixologik, pedagogik, huquqiy masalalarini o'rgangan bo'lsalar, respublika faylasuflari E.Yusupov, X.Shayxova, Q.Nazarov, N.Komilov, M.Xolmatova, M.Imomnazarovlar shaxs tarbiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalarini, sotsialog M.Bekmurodov shaxs axloqini shakllantirishda hamda axloqiy buzilishlarni oldini olishda jamoatchilik fikrining tutgan o'rni masalalarin, huquqshunoslar O.Oqilov, A.Qulahmetov, M.Usmonaliev, R.A.Turdievlar jinoyatchilik, jumladan o'smirlar jinoyatchiligi masalalarini ilmiy o'rganishgan.

Ma'lumki, insoniyat tarixining dastlabki davrlarida ijtimoiy deviantlik va xulq-atvor og'ishining yuz berish jarayonlari axloqsizlik sifatida qaralgan va asosan diniy me'yorlar orqali tartibga keltirib turilgan. Turon xalqlari ham qadim-qadimdan ijtimoiy deviantlik holatlariga salbiy munosabatda bo'lishgan va ushbu munosabat zardushtiylik, budda va boshqa qadimgi Turonda mavjud boshqa diniy ta'limotlarda aks etgan.

O'rta asrlar musulmon Sharqi aristotelchilik oqimining Turkistondagi asoschisi, qomusiy alloma Abu Nasr al-Forobiy hisoblanadi. Arastu izidan borib, Forobiy falsafani ikkiga, nazariy va amaliyga bo'ladi hamda axloqshunoslikni amaliy fal-safa tarkibiga kiritadi. Axloqiy me'yorlardan og'ish muammola-ri, uning «Baxtga erishuv yo'lini ko'rsatuvchi kitob», «Baxtga erishuv haqida», «Davlat arbobining hikmatlari», «Fozil odamlar shahri» singari asarlarida ko'tarilgan. Alloma o'z qarashlarida fazilatga juda katta o'rin beradi. Arastuga o'xshab, u ham fazilatlarini ikki qismga - fozoil nutqiya (aql-idrokka asoslangan fazilatlar) va fazoil xulqiya (xulqiy fazilatlar)ga ajratadi hamda ularning o'rtalik xususiyatlarini ta'kidlab o'tadi.

Buyuk vatandoshimizning fikricha, insonga uni go'zal amallar qilish uchun yo'naltiradigan odat mahsuli bo'lmish yetuk xulq lozim. Xulqning yaxshiligi xatti-harakatlarda me'yor qay darajada saqlangani bilan bog'lanadi. Forobiy ba'zilar o'ta lazzatga berilishi, yeyish-ichish va ayolga ro'ju qo'yishi tufayli juda bo'shashib ketadi, irodasi zaiflashadi, unda risoladagi nafrat hamda g'azab hissi yo'qoladi deydi. Butun kuchini o'z nafsiga sarflaydigan kishida ulug'vorlik tubanlikka xizmat qila boshlaydi, ya'ni fikrlash qobiliyati g'azab va ehtiros kuchlari xizmatida bo'ladi, bu kuchlarning harakati esa, yeyish-ichish hamda shahvoniy nafsni qondirishga bag'ishlanadi.

Axloq ilmida va umuman ijtimoiy hamda, tabiiy fanlarda chuqur iz qoldirgan buyuk ajdodlarimizdan biri Abu Rayhon Beruniydir. Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida insonlar va xalqlarning ijobiy yoki salbiy urf-odatlarini, xulq-atvorining shakllanishida tabiiy muhitning hamda jug'rofiy omillarning ahamiyatini ko'rsatib berdi. Bu esa, keyinchalik sotsiologiya va kriminologiyada geografik yo'nalish nomini olgan hamda ijtimoiy deviantlik holatlarining paydo bo'lishi va shakllanishida geografik omillarni muhim deb hisoblovchi yo'nalishga asos bo'lib xizmat qildi. «...(odamlar) tuzilishlarining rangi, surat, tabiat va axloqda turlicha bo'lishi faqatgina nasablarning turlichaligidan emas, balki tuproq, suv, havo va yerning (odam) yashaydigan joylarining turlichaligidan hamdir» .

Forobiyning shogirdi Ibn Sinoning axloqiy qarashlari asosan «Axloq ilmiga doir risola», «Burch to'g'risida risola», «Nafsni pokiza tutish to'g'risida risola»,



«Adolat haqida kitob», «Turar joylardagi tadbirlar» singari asarlarida va o'z zamondoshlari bilan olib borgan munozara-yozishmalarida o'z aksini topgan.

Milliy pedagogikamizda muhim o'rin tutuvchi asarlardan biri Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi bilimlar») asaridir. Asosan bilimni ulug'lab, insonni bilim bilan kamolotga yetishtirishga, tarbiya va bilim orqali uning xulqini tarbiyalashga, unda ijobiy xislatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan mazkur asar, ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining deviant xulq-atvoriga ilmiy yondashuvini o'rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur asarda Yusuf Xos Hojib tomonidan inson xulq-atvoriga nisbatan o'ziga xos yondashuvni kuzatish mumkin. Ya'ni uning bildirishicha, yaxshi xulq ham, yomon xulq ham, ikki xil bo'lishi mumkin: tug'ma va ijtimoiy muhit natijasida shakllangan xulq.

Ma'lumki, deviant xulq-atvor nazariyasiga nisbatan yagona yondashuv yo'qdir. Turli sotsiologik va psixologik nazariyalar bilan birga, ulardan keskin farq qiluvchi biologik qarashlar ham yonma-yon rivojlanib kelmoqda. «Qutadg'u bilig»da esa, alloma tomonidan ushbu ikki qarama-qarshi yondashuvlarni birlashtirish holatlarini kuzatishimiz mumkin. Ya'ni, ayrim insonlarning yomonligiga, deviant xulqqa egaligiga tug'ma omillar sabab bo'lsa, boshqalariga ijtimoiy muhit sabab bo'ladi. Ushbu va boshqa ko'plab jihatlari bilan «Qutadg'u bilig» asari, deviant holatlar sotsiologiyasida ham o'rganilishi lozim bo'lgan asarlar sirasiga kiradi.

Shuningdek, Navoiy va boshqa Sharq allomalari asarlarida ham ilgari surilgan axloqiy tamoyillar hamda ijobiy qahramonlar qiyofalarida tajassum topgan adolat, sadoqat, burch, muhabbat, rahm-shafqat, mardlik, kamtarlik singari fazilatlar haqida ko'p yozilgan.

“Deviant xatti-harakatlar” tushunchasi voyaga yetmagan yoshlarning xatti-harakati jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy tartib-qoidalardan chetga chiqish degan ma'noni bildiradi va ushbu tartib-qoidalarga rioya qilmaslik va ularni buzish bilan xarakterlanadi. Deviant xatti-harakat ayniqsa, voyaga yetmaganlar uchun xosdir. Ushbu davrda voyaga yetmagan yoshlarning shaxsiy xislatlari shakllanadi, uning o'z-o'zini anglashi, dunyoni bilishi qaror topadi. Biroq shaxsning shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, o'ziga xos qiyinchiliklar va og'ishlar, ichki qarama-qarshiliklar hamda ijtimoiy hayotdagi turli vaziyatlarga ko'nika olmasliklar bilan kechishi mumkin. Deviant xarakterga ega bo'lgan yoshlar ko'pincha maktabdagi darsga bormaydilar, uydan qochib ketadilar, daydilik qiladilar, tilanchilik bilan shug'ullanadilar, ichkilik ichadilar, giyohvandlikka ruju qo'yadilar. Natijada qonunbuzarlikka moyil bo'lib, jinoyatga qo'l uradilar.

Muammoni amaliy tahlil qilish va tuzatish yo'llari

Psixologik korreksiya – bu keng ma'noda amaliy psixologiyaning shunday shakli va usuldagi faoliyatki, bu faoliyat insonni ruhiy, aqliy va shaxsiy rivojlantirishdagi zaifliklarni tuzatishlarga qaratilgan bo'ladi.

Psixologik korreksiya maxsus bo'lgan ma'nosi psixolog «nimani tuzatmoqchi» bo'lishiga bog'liqdir. Masalan: bilim olishga bo'lgan intilish korreksiya, deviant xulqining korreksiya, o'zaro muloqot kelishmovchiliklarning korreksiya. Psixokorreksiya, konsultativ psixologiya (maslahat berish) bilan uzviy bog'liq, u psixologiyaning mustaqil bo'limidir.

Aynan, yakka tartibdagi ruhiy maslahatlar turli hayotiy, shaxsiy va boshqa shu turdagi muammolari bor insonlarga yordam beradi. Maxsus tashkil etilgan muloqot-suhbat davomida psixolog yordamida shaxs o'zidagi bor kuchlarni safarbar qila olishi mumkin.

Aynan, shu qo'shimcha ruhiy kuch-quvvat va qobiliyat, insonning qiyin muammoli holatlardan chiqishga yordam beradi. Maslahat berish usullarini quyidagicha tuzish mumkin:

1. Hayotiy ko'nikmalar, treninglar;
2. Insonlarning o'zaro aloqalarining treningi;
3. Muammoni hal qilish va muhim qaror qabul qilish treningi;
4. Qobiliyatlarni yunaltirish va rivojlantirish;
5. O'zining rivojlantirishga, o'z ustida ishlashga yordam.

Bu usuldagi treninglardan guruh ichidagi va oilaviy ruhshu-noslikda, psixoterapiyada foydalaniladi, shu usullar vositasida muammoli vaziyatga shaxsning boshqalar bilan kelisha olmaslik xususiyatlarini to'g'rilash kiritiladi (psixokorreksiya). Psixokorreksiya va rivojlanish kamchiliklarni tuzatish va shaxsning shakllanishi jarayonida yuz bergan me'yordan chiqishlarni hal qilish: shaxsning sog'lom ruhiy rivojlantirishga sharoit yaratish.

Deviant xulqning oldini olish faoliyati umumiy va maxsus tadbirlardan biri, ular ijtimoiy faoliyati turli darajalarini qamrab oladi. Muvaffakiyatli psixoprofilaktik ishlarning asosiy shartlari: uning ixcham yig'ilganligi, ketma-ketligi, uzviyligi, dolzarbligi, toifaga to'g'ri bo'linganligi. Umumjahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti quyidagi profilaktika ishlarini muhim deb belgilagan:

Birinchi darajadagi profilaktika ishlari – noma'qul xossalarning ta'sirini yo'qotishga, shu xususiyatlarga nisbatan immunitet hosil qilishga qaratilgan chora-tadbirlardir.

Bu tadbirlar o'smirlar orasida keng yo'lga qo'yilishi mumkin.

Ruhiiy asab tizimi buzilishini ilk davrda aniqlab, uni tuzatishga «xavfli guruh»dagi o'smirlar bilan ishlashga, endi shakllanayotgan deviant fe'lga ega o'smirlarni qayta tarbiyalash ishlarini olib borishga qaratilgan. Uchinchi darajadagi ishlar – bu ruhiy asab tizimi buzilishidan kelib chiquvchi xulq-atvor illatlarini davolash bo'yicha olib boriladigan maxsus faoliyat deviant xulqli o'smirlarning o'ta og'ir fe'l-atvorni namoyon qiluvchi qilmishlarini oldini olishi mumkin. Ruhiiy profilaktika ishi 3 darajali oldini olish choralaridan iborat bo'lishi mumkin. Qanday uslubda amalga oshirilayotganiga qarab, ruhiy profilaktika ishi quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- o ijtimoiy-psixologik va axloqiy treninglar;
- o namunaviy dasturlar;
- o ruhiy maslahatxonalar;
- o ishonch telefonlari;
- o komplekslik jamlangan, umumlashgan;
- o adreslik, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi;
- o ommaviy-guruhlashishni ilgari surish;
- o ma'lumotlarning xolisligi;
- o salbiy xotimani iloji boricha chetlab o'tish;
- o qatnashuvchilarning shaxsiy manfaatlari va javobgarligi;
- o kelajakka intilish istiqboli, reja asosida harakatlanish.

Deviant xulqli o'smirlarga ko'rsatiladigan yordam ikki yo'nalishda bo'ladi. Psixologik jihatdan oldini olish, psixokorreksiya va oqlamoq. Psixodiagnostika - kerakli bo'lgan, ammo hayotiy zarurat hisoblanmagan faoliyatdir. O'smir yoshlar bilan ruhiy profilaktika ishini olib borishning turli shakllari bor. Ilmiy-ommabop adabiyotlarga asoslanib, ularni yettita shakllarga umumlashtirilgan holda amalda tatbiq etish mumkinki, aynan shu shakllar, nafaqat chet davlatlarda, balki qisman Vatanimiz O'zbekistonda ham qo'llanilib kelinmokda.

Birinchi shakl – ijtimoiy muhitni tashkil qilish. Uning asosida atrof-muhitni deviant xulqli o'smirlarga bo'lgan ta'siri haqidagi tasavvurlari yotadi. Atrofdagi muhitga ta'sir qilib, shaxsni salbiy xulqini o'zgartirish mumkin. Bunda o'smirning deviant xulqini muhokama qiluvchi jamoatchilikning ta'siri ham ish berishi mumkin.

Faoliyat davomida oilaga, alohida shaxsga suyanish mumkin. Yuqoridagi shakl negizida sog'lom turmush tarzini, jismoniy tarbiyani, sport bilan shug'ullanishni targ'ib qilish bilan deviant xulqqa bog'lanib qolishning oldini olish ham mumkin. Ayniqsa, bola o'z bo'sh vaqtini o'tkazadigan joylarda profilaktika ishlarini olib borish kerak. Ko'chalarda lider-o'smirlar tayyorlash orqali yoshlar



bilan ishlashni yo'lga qo'yish mumkin. Shu ishlar zamirida o'smirlarni nomaqbul xatti-harakatlaridan himoya qilish, ularni qo'llab turuvchi qayta tarbiyalovchi hududlarni yaratish yotadi. Lekin, bu ishlarining asosiy kamchiligi – bu ijtimoiy holat bilan deviant xulqning bog'liqligini yetarlicha o'rganilmaganligi hisoblanadi.

Umuman olganda birinchi shakl asosida faoliyat olib borish yaxshi natija beradi.

Ikkinchi shakl bo'yicha ruhiy profilaktikani olib borish usuli – axborot yetkazish. Bu ancha ommalashgan yo'nalish usuli bo'lib, unda ma'ruzalar, suhbat, maxsus adabiyotlar va telefilmlardan foydalaniladi. Bunday yondashuvning asosiy maqsadi - shaxsning bilish qobiliyatiga va qiziqishlariga ta'sir qilib, unda kerakli, to'g'ri xulosa chiqara olish qobiliyatini tarbiyalash. Buning uchun, masalan, giyohvand moddalarning sog'li qqa va shaxsga qanchalik halokatli ta'sir qilishi haqidagi aniq faktlarga asoslangan statistik ma'lumotlarga o'xshash misollardan keng foydalanish zarur. Ko'pincha bunday ma'lumotlar qo'rqitish tusida bo'ladi. Shuningdek, ta'sir qilish davomida giyohvand moddalarning yomon oqibatlari sanab o'tiladi va deviant xulqli o'smirlarning fojivaviy taqdiri, shaxs sifatida tanazzulga yuz tutishi hollari tasvirlab beriladi. Bu shaklda profilaktika ishini olib borish axborot-bilish jarayoniga ta'sir qilishi mumkin, ammo shaxs o'z xulqini tubdan o'zgartirmasligi ham kuzatiladi. O'z ta'siri bo'yicha bilish jarayoni deviant xulqning darajasini pasaytirmaydi. Aksincha, salbiy deviant holatlar bilan tanishuv, ba'zi o'smirlarni unga qiziqtirib qo'yadi. Chunonchi, ko'pincha ma'lumotlar o'z vaqtida emas, juda erta, yoki juda kech qolib beriladi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, giyohvandlikning zararlari, halok etuvchi oqibati haqidagi suhbatlarni 14 yoshdan oldinroq olib borish kerak. Bu suhbatlarni tuzishda shunga e'tibor berish kerakki, suhbat davomida giyohvand modda to'liq tasvirlanib, uning beradigan kayfu-safosi haqida so'z yuritilmasin. Suhbat mazmuni deviant xulqning ayanchli oqibatlari va unga qarshi kurashish hayotiy pozitsiyaga ega bo'lish kabilarga olib kelish kerak. Bunday profilaktika shaklini rivojlantirish, ta'sirini oshirish uchun qo'rqitish ruhidagi ma'lumotlarni kamaytirib, qolgan ma'lumotlarni yoshga, jinsga, ijtimoiy-iqtisodiy kelib chikishiga qarab ishlatishni taqazo qiladi.

Uchinchi shakli - ijtimoiy zarur bo'lgan ko'nikmalarni faol o'rgatishni singdirish. Bu shakl bo'yicha ishlashda guruhlarda trening o'tkazish vositasidan foydalaniladi. Hozirgi davrda treninglarning quyidagi formalari mavjud. Salbiy ijtimoiy ta'siriga qarshi bo'lgan rezistentlik treningi. Treningning maqsadi: deviant xulqning yo'nalishini yaxshi xususiyatlari tomon burish. Buning uchun o'smirde quyidagi ko'nikmalar shakllantiriladi: ba'zilarining salbiy ta'siriga qarshi o'z fikriga ega bo'lish, ba'zi ichuvchi kattalar ta'siriga tushmaslik, kimdir ta'sir, bosim

o'tkazayotganida yo'q deyishni ham bilish. Assertivlik va affektiv-qimmatli bilim berish - bu deviant xulqqa emotsional holati ta'sirini olib beruvchi faoliyat. Ruhiiy zo'riqishlar oqibatida kelib chiquvchi muammolarning oldini olish uchun o'smirlarning ruhiyatini o'rganishga, stress holatlarda o'zini munosib tuta olishga o'rgatishadi. Guruhda ishlash davomida qaror qabul qilish o'z-o'zini to'g'ri baholash, o'zini o'rganish va hayotiy qadriyatlarini qadriga yetish kabi ko'nikmalar shakllantiriladi. Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirilishi treningi. Hayotiy ko'nikmalar deganda - shaxs uchun kerakli bo'lgan ijtimoiy bilish jarayoni tushuniladi.

Avvalambor, bular - muloqot qilish, do'stona aloqada bo'lish va muammolarni do'stona hal qilishlardir. Shuningdek, buning zamirida javobgarlikni his qilish, maqsad qo'yishi, o'zining qiziqishlari, pozitsiyasini himoya qila olishlari bor. Nafsilam-birini aytganda, asosiy kerakli ko'nikma, bu o'zini boshqara olish, o'ziga qat'iy ishonch, o'zini o'zgartira olish, atrofga ta'sir o'tkaza olishdir. Aynan shu shakl o'smirlar bilan ishlashda eng sermahsulidir.

To'rtinchi shakli - deviant xulqqa muqobil xulq-atvorni shakllantirish. Bu shaklda deviant o'smirlar bilan ishlash deviant xulqning o'rnini bosuvchi xulqni topishi bilan bog'liq. Masalan, giyohvand moddalarga bog'liqlik o'rnini o'z-o'ziga ishonch ruhiga o'zgartirish juda katta yutuq hisoblanadi. Chunki, ko'pgina giyohvandlar aynan psixotrop moddalar-ning kayfiyatni ko'tarish xususiyatiga qiziqadilar, kayfiyatni maqbul yo'llar bilan o'zgartirilishi profilaktika ishining asosidir. Muqobil shaklda kayfiyatni ko'tarish usullari:

- sayohatlar, tog'larga chiqish;
- alpinizm;
- ekstremal sport turlari;
- sevgi;
- kerakli muloqot;
- ijod;
- faoliyat;
- diniy marosimlar;
- xayriya ishlari.

Bu mashg'ulotlardan istagan vaqtida foydalanish mumkin. Oila quchog'ida olib borilayotgan profilaktika ishlardan quyidagilar asosiylaridir: muntazam qiziqishlarning erta boshlanishi, tarbiyalash, yaxshi ko'rish va yoqimtoy bo'lish qobiliyatini shakllantirish, mehnat kilish va bo'sh vaqtini unumli o'tkazishni bilish. Ota-onalar shuni bilishlari zarurki, shaxsni tar-biyalash bolaning yoshlik chog'idan sport, san'atga bo'lgan qiziqi-shlarini tarbiyalashdan boshlanadi. Agar o'smir

yoshgacha bolada ijodiy qobiliyatlar tarbiyalanmasa, bunday shaxs yillar o'tgani sari yomonliklarga o'ch bo'ladi.

Beshinchi shakli - sog'lom turmush tarzining shakllantirilishi. Bu o'smirning nechog'liq o'z sog'ligi, atrof-muhit bilan garmoniyasiga, o'z organizmiga javobgarligi bilan belgilanadi. Insonning o'z sog'ligiga ehtiyotkorona munosabati, kasal keltiruvchi omillardan chetlashib yura olishi, ayniqsa, shaxsning yaxshi xislatlaridan deb baholanadi. Sog'lom turmush tarzi deganda yaxshi, vitaminli taomlarni yeyish, muntazam jismoniy faoliyat bilan shug'ullanish, mehnat va damning ketma-ketligiga rioya qilish, tabiat bilan garmoniyada yashash, ortiqcha dabdabavozliklarga yo'l qo'ymasliklar tushuniladi. Bunday hayot tarzi ekologik tafakkurga va jamiyatning rivojlanish darajasiga ham bog'liq.

Oltinchi shakli - shaxsiy resurs (quvvat)larni safarbar qilish. Artterapiya shaxsning ijobiy sifatlarini faollashtirish, masalan, sport bilan faol shug'ulanish, ijodiy faoliyat, guruhlar, fan klublarida bo'lish kabilar. O'z navbatida yuqoridagidek ishlar shaxsning sog'lom va faol ijobiy, ijodiy hayotda ishlashiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Yettinchi shakli - deviant xulqining salbiy oqibatlarini yo'qqa chiqarish (minimizatsiya). Bu shakllardagi ishlar shakllanib bo'lgan salbiy fe'l-atvorga nisbatan qo'llaniladi. Bu faoliyat yomon fe'l- atvorning oqibatlarini yo'qotishga qaratilgan. Masalan, giyohvandlarga kerakli tibbiy yordamni ko'rsatish, uning ayanchli oqibatlarini aniqlashtirish kabilar. Deviant xulqli o'smirlar bilan olib boriladigan profilaktika va tuzatish ishlari ijtimoiy-psixologik xususiyatlarga ega. Deviant xulq ustida olib boriladigan ishda dastlab yakka tartibdagi ishlarni olib borish maqsadga muvofiq, chunki, guruhda o'smirlar bir-biriga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu paytning o'zida oila bilan ham ishlash kerak. Oiladagi munosabatlarning ahvolini tahlil qilib bo'lgandan so'ng, individual ish bilan birga guruhda ham ish olib borish kerak. Tuzatish ishlari olib borilganda, o'smirning ijtimoiy qadriyatlarini, qarashlar va qobiliyatlarini hisobga olish kerakki, aynan shu mezonlar shaxsning dunyoqarashini shakllantiradi. Shaxsning bo'sh vaqtini iloji boricha foydali ishlar bilan band etib, uni ijobiy shakllanish vositalari: kitob o'qish, o'z-o'zini takomillashtirish, internetda muloqot, uy ishlari, musiqa, sport bilan tarbiyalash kerak. Shuni hisobga olish kerakki, deviant xulqli o'smirlarga nisbatan olib borilgan tarbiyaviy profilaktik ishlar faqatgina o'smirlarning o'zlariga qaratilgan bo'lishi mumkin emas. O'smirni to'liq tuzatish uchun uning atrofidagi muhitni o'zgartirish darkor. Deviant xulqli o'smirlarga jamoatchilik tarafdin ta'sir qilinishi quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin: huquqiy choralar, tibbiy aralashuv, pedagogik ta'sir, ijtimoiy himoya va psixologik yordam kabilar. Deviant xulqli

o'smirning og'ir fe'li va davomli illatlari sababidan tuzatish, qayta tarbiyalash ishlarini olib borishni yaxshi tashkil qilingan ijtimoiy-pedagogik va ruhiy faoliyat ketma-ketligi kabi qurish talab etiladi. Profilaktika ishlarining – samarasi quyidagi belgilar darajasi bilan baholanadi: sal-biy xulqning kamayishi darajasini ko'rsatuvchi ob'ektiv belgilar (m: giyohvand modda qabul qilishning kamayishi, yo'qqa chiqishi). Va salbiy xulqning kamayishi darajasini ko'rsatuvchi sub'ektiv o'zgarishlar (m: sog'lom turmush tarzida yashashni xohlash). Ijobiy o'zgarishlarning asosiy mezonidan biri – ijtimoiy munosabatlarni to'g'ri qurishga bo'lgan ko'nikmaning shakllana boshlashidir.

Xulosa

O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, O'zbekiston o'smir-yoshlari orasida yuz berayotgan deviant (addiktiv) tarbiyaviy og'ishishlar holatlarning yuz berishiga ta'sir qilayotgan quyidagi shaxs xususiyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- bugungi kunda o'smirlarimizdan ayrimlari 14-15 yoshda buzuqlik ko'chalarga kirib ketishmoqda;

- qizlar ham, o'g'il bolalar ham aksariyat birinchi marta spirtli ichimliklarni ham, giyohvand moddalarni ham do'stlarinikida iste'mol qilishmoqda. Demak, bugungi kunda o'g'il-qizlarimizni ijtimoiy deviantlikka boshlayotganlar ko'proq do'stlari bo'lishmoqda;

- O'zbekiston o'smir-yoshlari ham, boshqa mamlakatlardagi tengdoshlari kabi, asosan o'smirlarga xos qiziquvchanlik sabab, ushbu yo'llarga kirib qolishmoqda;

- giyohvand vositalar iste'mol qiluvchi ayollar farzandlarini nafaqat jismoniy, balki ma'naviy-tarbiyaviy jihatdan ham majruh qilib qo'ymoqda;

- o'smirlarda spirtli ichimliklar iste'molining sog'liqqa va zurriyotga salbiy ta'siri haqidagi bilimlar yetarli emas. Bu esa ularda o'z-o'zini nazorat qilishni susaytirib qo'yadi;

- o'smirlarimizning o'z huquqlarini bilishi bugungi kun talablari darajasida emas.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ayol-lar va o'sib kelayotgan avlod sog'ligini mustahkamlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 2002 yil 25 yanvar 32-sonli qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 25 yanvar 30-sonli qarori. "Jamiyatda sog'lom turmush tarzi-ni yanada shakllantirish, axoli

salomatligini mustahkamlash, jismoniy va ma'naviy boy avlodni tarbiyalash, fuqarolarni ommaviy jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishga keng jalb etish to'g'risida"gi davlat dasturi.

3. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. 30.04.1998.

4. Abdirov N.M. Podrostok v orbite narkotizma: problemi, reduprejdeniya. Monografiya. -Karaganda, 1997. -241 s.

5. Aktualnie problemi organizatsii mediko-psixosotsial-noy pomoshchi nesovershennoletnim, zloupotreblyayushim psixoaktivnymi veshchestvami, v usloviyax krupnogo goroda: Nauchno-meditsinskaya monografiya. SPb, 2003. -192 s.

6. Aktualnie problemi deviantnogo povedeniya: Sb.st./ RAN; In-t sotsiologii. - M.,1995.

7. Afanasev V.S., Gilinskiy Ya.I. Deviantnoe povedenie v usloviyax totalnogo krizisa: osobennosti, tendensii, perspektivi // Obraz misley i obraz jizni. - M.,1996. - S.147 - 162.

8. Garbuzov V.I. Prakticheskaya psixoterapiya, ili kak ver-nut rebyonku i podrostku uverenost v sebe, istinnoe zdorove i dostoinstvo. - S-Pb.: AO «Sfera», 1994. - 160 s.

Internet saytlari

1. [www.google.ru](http://www.google.ru)
2. [Disercart.ru](http://Disercart.ru)